

TOBELOVCHI VOSITALARNING NUTQIY VOQELANISHIDA PRAGMATIK OMILLARNING O‘RNI

Ro‘ziyev Ismoil Isog‘ovich

ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi

Qarshi shahar 1-son ixtisoslashtirilgan maktab-internati

***Annotatsiya:** Til yaxlit sistema bo‘lib, bu sistemadagi har bir til birligining nutqiy voqelanishi bevosita pragmatik omillar bilan bog‘liq. Mazkur maqolada o‘zbek tilidagi tobelovchi vositalarning nutqiy voqelanishida pragmatik omillarning ta‘siri masalasi to‘g‘risida so‘z yuritiladi.*

***Kalit so‘zlar:** pragmatika, pragmatik omil, tobelanish, tobelovchi vosita, so‘z tobelovchi, gap tobelovchi.*

***Аннотация:** Язык представляет собой целостную систему, и речевая реализация каждой языковой единицы в этой системе напрямую связана с прагматическими факторами. В данной статье рассматривается влияние прагматических факторов на речевую реализацию сослагательного наклонения в узбекском языке.*

***Ключевые слова:** прагматика, прагматический фактор, подчинение, подчинительный инструмент, подчинитель слова, подчинитель предложения.*

***Annotation:** Language is an integrated system, and the speech realization of each language unit in this system is directly related to pragmatic factors. This article discusses the influence of pragmatic factors on the speech realization of subjunctives in the Uzbek language.*

***Key words:** pragmatics, pragmatic factor, subordination, subordinating tool, word subordinator, sentence subordinator.*

Til yaxlit sistema ekan, bu sistemadagi har qaysi til birligining nutqiy voqelanishi bevosita pragmatik omillar ta‘sirida kechadi. Pragmatika – tilshunoslikning yangi amaliy tarmog‘i, nutqiy jarayon, nutqiy vaziyat, nutq ishtirokchilariga xos kommunikativ maqsad bilan aloqador masalalarni tadqiq etuvchi sohasi [3:14]. Pragmalingvistikaning shakllanish jarayoni o‘tgan asrning 60-70-yillariga to‘g‘ri keladi. Keyinchalik esa jahon pragmalingvistikasining uch asosiy yo‘nalishi vujudga keldi. Bular Britaniya pragmalingvistikasi, Amerika pragmalingvistikasi hamda Praga pragmalingvistikasidir. Mazkur yo‘nalishlarning har biri o‘ziga xos tarzda rivojlanishni davom etmoqda [2:69-70].

O‘zbek tilshunosligida 2001-yilda M.Hakimov tomonidan “O‘zbek tilida matnning pragmatik talqini” mavzusida himoya qilingan doktorlik dissertatsiyasi bu boradagi ishlarning debochasi bo‘ldi, deyishimiz mumkin. Ushbu tadqiqot

tilshunosligimizda lingvistik pragmatikaga doir nazariy masalalar birinchi marta monografik aspektida o'rganilganligi bilan ahamiyatlidir [3:283]. Tilshunos olim Sh.Safarovning 2008-yilda nashr ettirgan "Pragmalingvistika" nomli monografiyasi esa tilshunosligimizda bu sohani yangi bosqichga olib chiqdi [5:76]. Tilshunosligimizda amaliy tilshunoslikning tolmas targ'ibotchisi bo'lgan B.Mengliyevning pragmalingvistika borasidagi qarashlari oldin bildirilgan fikrlardan farqli bo'ldi. Tilshunos tilini yangi – subistansial-pragmatik tamoyil asosida tadqiq etish lozimligini ilgari surdi [4:].

Ma'lumki, har qanday lisoniy birlik nutqqa chiqar ekan, uning voqelanishi lisoniy va pragmatik omillar qurshovida kechadi, umumiy lisoniy mohiyati u bilan birgalikda ishtirok etayotgan boshqa lisoniy birliklar ko'magida muayyanlashadi. Tadqiqotchilar pragmatik muhit tashkil etuvchilari miqdoran rang-barangligi hamda keng qamrovligi bilan xarakterlanishini ta'kidlashadi. Olima M.Ernazarovanning fikricha, "Shaxs, vaziyat, sharoit orasida shaxs omili, kommunikantlarning tabiati va mavqeyi, o'zaro munosabati kabilar muhim ahamiyatga ega. Birgina shaxsning nutqiy holati jinsiy tafovut, fe'l, saviya, ijtimoiy mavqe, yosh, ma'lumot, mutaxassislik, sog'lik, kayfiyat kabi ko'rinishlardan iborat bo'lib, ularning har biri lisoniy birliklar, xususan, grammatik shakllarning nutqiy voqelanishiga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatadi – ba'zan fluktuatsiya darajasida, ba'zan undan quyi maqomda turadi" [2:100].

Pragmatik omillarning ta'sirini asoslash uchun misollarga murojaat qilamiz:

"Bola anchagacha uyqu g'ashligi bilan yig'ladi, keyin otasining g'azabidan, onasining ahvolidan qo'rqib, kampir o'rgatgancha duo qildi:

– Xudoyo ayamdi daydiga davo beygin..." [144]

Berilgan misolda qaratqich kelishigi "-ning" shaklining "-di" shaklida nutqiy voqelanganligini ko'rishimiz mumkin. Nutqda "qaratqich va tushum kelishiklari affiksida n//d//t tovushlarining (-nъng//nъng, -dъng//dъng, -tъng//tъng, -nъ//nъ, -dъ//dъ, -tъ//tъ) almashinishi" ma'lum [1:57]. Bu qipchoq lahjasining o'ziga xosliklaridan biridir. So'zlashuvda qaratqich kelishigi o'rnida ham tushum kelishigini qo'llash nutqiy me'yor hisoblanadi. Inson hamisha qulaylikka intiladi, kam harakat qilib, ko'proq foydani ko'zlaydi. "Sotiboldining to'rt yashar qizchasi" uchun "ayamning" yoki "ayamni" so'zshakllarini aytishdan ko'ra "ayamdi" so'zshaklini talaffuz qilish ancha oson. Chunki m va n undoshlari burun tovushlari bo'lganligi sababli ularni yonma-yon talaffuz etish biroz noqulaylik tug'diradi. Dissimilatsiya hodisasiga binoan ikki o'xshash tovushdan biri noo'xshash tovushga o'z o'rnini bo'shatib berishi kerak, ya'ni n tovushi d til oldi tovushi bilan o'rin almashadi. Qaratqich kelishigining nutqda -di tarzida namoyon bo'lishi nutqiy qulaylik, hududga mansublik, yosh pragmatik omillarining ta'siri natijasidir.

Yozuvchi bolaning ruhiy holatini uning yosh darajasidan kelib chiqib soʻzlar orqali ochib bergan.

“Pojarni “gugurtni yerga tashlamang” dedi, rejissyorimiz esa “gugurtning yerga tashamang” dedi. Qanday chiroylilik! Pojarnimi, pojarningmi?” [6:194]

Ushbu misolda esa qaratqich va tushum kelishigining farqiga bormaydigan qahramon nutqini koʻrishimiz mumkin. Sanʼatkor nutqi orqali adib uning va rejissyorning saviyasi qay darajada ekanligini koʻrsatishga harakat qilgan. Saviya pragmatik omilining taʼsirida tushum oʻrnida qaratqichning voqelanganini koʻrishimiz mumkin.

“– Himm... – dedi Baqoyev, – Chexov toʻgʻrisida oʻzinning fikrim bor. Boshqalar nima desa desin, har holda uning dunyoga qarashida... Uning dunyoga qarashi Pushkin va Lermontovlarning dunyoga qarashidan farq qiladi. Bir davr, bir sinf, bir mamlakat yozuvchilari boʻlishlariga qaramasdan, mutlaqo farq qiladi!” [6:191]

Abdulla Qahhorning “Adabiyot muallimi” hikoyasidan olingan mazkur parchada joʻnalish kelishigi qoʻshimchasining ortiqcha qoʻllanilishi oqibatida uslubiy gʻalazlik yuzaga chiqmoqda. Maʼlumki, dunyoqarash soʻzi qoʻshma soʻz boʻlib, dunyoga qaramoq soʻz birikmasidan oʻsib chiqqan. Lekin buni soʻz birikmasi holida qoʻllash soʻz qoʻllash, qoʻshimcha qoʻllash bilan bogʻliq uslubiy xatoliklarga olib keladi. Muallif adabiyot muallimi boʻlgan Baqoyevning nutqida “dunyoga qarashida, Bir davr, bir sinf, bir mamlakat yozuvchilari boʻlishlariga qaramasdan” jummalarni qoʻllash orqali uning dunyoqarashi, saviyasi qay darajada ekanligini kitobxonga bildirib qoʻymoqda. -ga soʻz tobelovchisining bu oʻrinda ortiqcha qoʻllanilishi ham muallif maqsadi va qahramon saviyasi pragmatik omillarining tutashuvi bilan bogʻliq.

Gap tobelovchisi boʻlgan -sa shart mayli vositasi oʻzining polisemantikligi hamda polifunksionalligi bilan ajralib turadi. Maʼlumki, u sodda gap kesimi tarkibida kelganda holat, orzu-istak maʼnolarini oʻzida aks ettirsa, (Masalan: Yomgʻir yogʻib yuborsa-ya. Birgalashib bir togʻlarga chiqsak) ergash gaplarni bosh gaplarga tobelaganda shart, payt, sabab-natija, istak, iltimos, toʻsiqsizlik kabi maʼnolarni voqelantirishga xizmat qiladi. Masalan: Yomgʻir yogʻsa, koʻchalar loy boʻladi ergash gapida payt maʼnosi yuzaga chiqsa, Karimjon bilsa ham, javob bera olmadi gapida esa toʻsiqsizlik ifodalanmoqda. -sa vositasida bu maʼnolarning nutqiy voqelanishi shaxs, vaziyat va sharoit omillari hamkorligida kechgan.

Quydagi gaplarda tobelovchilar sabab maʼnosini ifodalab, sinonimik modellarni vujudga keltirgan:

1. Yomgʻir yogʻdi, shuning uchun bolalar futbol oʻynay olmadi [Ergash gap + shuning uchun + bosh gap = sabab].

2. Bolalar futbol o‘ynay olmadi, chunki yomg‘ir yog‘di [Bosh gap + chunki + ergash gap = sabab].

3. Yomg‘ir yog‘di deb, bolalar futbol o‘ynashmadi [Ergash gap + deb + bosh gap = sabab].

Gaplarning tobelanishi, mazmuni to‘liq, aniq ifodalash, ma’no nozikliklarini ko‘rsatish, uslubiy bo‘yoq hamda tasviriylik lisoniy omillari bilan vaziyat pragmatik omilining mushtarakligi ushbu tobelovchi vositalarning nutqiy voqelanishida xizmat qilmoqda.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, tobelovchi vositalarning nutqiy voqelanishi pragmatik omillarning ta’siri bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, bu bog‘liqliklarni tadqiq etish amaliy lingvistika borasidagi hamda tildan amaliy foydalanish ko‘nikmasini oshirishdagi muammolar yechimi uchun bir kalit vazifasini bajaradi.

Adabiyotlar:

1. Ashirboyev S. O‘zbek dialektologiyasi / metodik qo‘llanma / –Toshkent, 2011. – 110 b.

2. Эрназарова М. С. Грамматик маъно лисоний ва прагматик омиллар яхлитлигида: Филол. фан. докт... (DSc) дисс. – Самарқанд, 2018. – 242 б.

3. Ҳақимов М. Ўзбек тилида матнинг прагматик талқини: Филол. фан. докт... . дисс. – Тошкент, 2001. – 283 б.

4. Менглиев Б. Р. Тилда имконият ва воқелик муштараклиги // “Маърифат” газетаси, 2015 йил 13 май.

5. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент: ЎЗМЭ, 2008. – 318 б.

6. O‘tmishdan ertaklar: qissa va hikoyalar / Abdulla Qahhor. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2019. – 400 b.